

AKKULTURATSIYA, SINKRETLASHUV VA TRANSFORMATSIYA: IX–XII ASRLARDA MOVAROUNNAHR HUDUDIDA BUDDAVIY–SHAMANIK AMALIYOTLARNING ISLOMIY MAROSIMLARGA SINGISHI

Ungalov Azizbek Amiriddin o'g'li, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Samarqand tamadduni tarixi" kafedrasida assistenti, (PhD)

ACCULTURATION, SYNCRETATION AND TRANSFORMATION: THE ABSORPTION OF BUDDHIST-SHAMANIC PRACTICES INTO ISLAMIC CEREMONIES IN THE TERRITORY OF MOVARUNNAHR IN THE 9TH–12TH CENTURIES

Ungalov Azizbek Amiriddin o'g'li, Assistant Professor, Department of "History of Samarkand Civilization", Sharof Rashidov Samarkand State University, (PhD)

АККУЛЬТУРАЦИЯ, СИНКРЕТИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ: ВНЕДРЕНИЕ БУДДИЙСКО-ШАМАНСКИХ ПРАКТИК В ИСЛАМСКИЕ ЦЕРЕМОНИИ НА ТЕРРИТОРИИ МАВЕРАННАХРА В IX–XII ВВ

Унгалов Азизбек Амириддин оглы, доцент кафедры "История Самаркандской цивилизации" Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова, (PhD)



<https://orcid.org/0009-0005-7600-941X>

e-mail:

azizbek.ungalov11111@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada IX–XII asrlarda Movarounnahrda islomning tarqalishi jarayonida buddaviy va shamanistik amaliyotlarning islomiy marosimlarga singishi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Akkulturatziya va madaniy transformatsiya jarayonida bu an'analar islomiy bayramlar, sufiylik va xalq urf-odatlariga moslashgani yoritiladi. Natijada mahalliy urf-odatlar butunlay yo'qolmagan, balki yangi diniy muhitda ayrim unsurlari saqlanib qolganligi ko'rsatiladi. Xususan, sufiy rasm-rusumlarda buddaviy va shamanistik izlar seziladi. Bu sinkretizm Markaziy Osiyoda o'ziga xos diniy amaliyotlarning shakllanishiga olib kelgan.

Kalit so'zlar: akkulturatziya, sinkretizm, buddizm, shamanizm, islomlashuv, sufiylik, Movarounnahr.

Abstract: This article examines the spread of Islam in Transoxiana during the 9th–12th centuries, focusing on the incorporation of Buddhist and shamanic practices into Islamic rituals, as evidenced by historical sources. Within the framework of acculturation and cultural transformation, these traditions were gradually adapted to Islamic festivals, Sufi practices, and popular customs. The findings demonstrate that local traditions did not entirely disappear; rather, certain elements persisted within the new religious environment. Notably, traces of Buddhist and shamanic heritage can be observed in Sufi rituals. This historical syncretism contributed to the emergence of distinctive religious practices in Central Asia.

Keywords: acculturation, syncretism, Buddhism, shamanism, Islamization, Sufism, Transoxiana.

Аннотация: В статье анализируется процесс распространения ислама в Мавераннахре в IX–XII веках с акцентом на проникновение буддийских и шаманских практик в исламские ритуалы на основе исторических источников. В рамках процессов аккультурации и культурной трансформации данные традиции адаптировались к исламским праздникам, суфийской практике и

народным обычаям. В результате показано, что местные обычаи не исчезли полностью, а отдельные их элементы сохранились в новой религиозной среде. В частности, в суфийских обрядах прослеживаются следы буддийских и шаманских традиций. Этот религиозный синкретизм способствовал формированию своеобразных религиозных практик в Средней Азии.

Ключевые слова: аккультурация, синкретизм, буддизм, шаманизм, исламизация, суфизм, Мавераннахр.

KIRISH (INTRODUCTION). IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo, xususan Movarounnahrda, islom dini keng tarqalib, mahalliy aholi turmush tarzi va marosimlarini o'zgartirdi [6,p.49-57] [8,p.1-3]. Islom kirib kelishi yangi e'tiqod va amallarni joriy etish bilan birga, buddaviy va shamanistik an'analarning islomiy muhitga singib borishiga sabab bo'ldi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, musulmon hukmronligi o'rnatilganda ham buddizm, zardushtiylik va shamanizm urf-odatlarini ma'lum muddat saqlangan [7,p.7-11]. Bu jarayon "akkulturatsiya" va "transformatsiya" tushunchalari bilan izohlanib, eski diniy amaliyotlarga yangicha ma'no berildi yoki ular islom doirasida davom etdi. Arablar fathidan so'ng (VIII–IX asrlar) Movarounnahrda islom davlat dini sifatida qaror topdi, biroq mahalliy e'tiqodlar tezda yo'qolmadi. Somoniylar davrida (IX–X asrlar) islomlashuv kuchaydi va ko'plab turkiy qabilalar yangi dinni qabul qildi [6,p. 49-57]. Shu bilan birga, sinkretik hodisalar kuzatilib, Navro'z va Mehrjon kabi qadimiy bayramlar musulmon ulamolari tanqidiga qaramay xalq orasida saqlanib qoldi, hatto hukmdorlar ham ularni nishonlashga majbur bo'ldi [7,p.7-11]. XII asrda Qoraxitoylar hukmronligi davrida esa diniy bag'rikenglik kuchayib, ayrim buddaviy an'analar qayta jonlandi [8,p.1-3].

Islomiy aqidaparastlik va xalq e'tiqodlari o'rtasidagi ziddiyatlar sintez orqali yangi shakllarga keltirildi. Sinkretizm – turli diniy an'ana va amaliyotlarning qo'shilishi – o'rta asr Movarounnahr diniy hayotining muhim jihati bo'ldi [4,p.714-718]. Bu jarayonda buddaviylik g'oyalari va shamanizm tajribalari islomiy marosimlarga singdi. Maqolada ushbu jarayonning asosiy ko'rinishlari, omillari va oqibatlari yoritiladi.

MATERIALLAR VA USULLAR (MATERIALS AND METHODS). Maqola tarixiy-komparativ uslubda yozilib, o'rta asr yozma manbalari va zamonaviy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi. Narshaxiy "Buxoro tarixi", Bayhaqiy

va al-Beruniy kabi mualliflar asarlarida islom davrida ham mahalliy odatlarning davom etgani qayd etilgan. Masalan, Narshaxiy X asrda Buxoroda Navro'z bayrami nishonlanganini yozadi [7,p.7-11], Bayhaqiy esa G'aznaviylar saroyida mahalliy an'analarning saqlanishini ta'kidlaydi [7,p.7-11].

Shuningdek, etnografik va arxeologik tadqiqotlar ham jalb etildi. V.N.Basilov "islomlashgan shamanizm"ni o'rganib, shamanlik unsurlarining islom qabul qilingach ham saqlanganini ko'rsatgan [3,p. 5-6]. Termiz va boshqa shaharlardagi budda monastirlari vayronalari hamda ilk islom davri masjidlari qoldiqlari diniy meros davomiyligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda akkulturatsiya nazariyasi asos qilib olindi. Bu nazariyaga ko'ra, madaniyatlar to'qnashganda ular o'zaro ta'sirlanib yangi sintez hosil qiladi. IX–XII asr Movarounnahr diniy jarayonlari ana shunday sintezning yorqin namunasi bo'lib, maqolada ilmiy adabiyotlar yordamida qayta tiklandi. Ma'lumotlarga havolalar GOST talablariga muvofiq berildi.

NATIJALAR (RESULTS). **Buddaviy amaliyotlarning islomiy marosimlarga singishi.** Movarounnahr islom kirg'uniga qadar buddaviy madaniyat markazlaridan biri bo'lib, Janubiy Turkistonda Fayoztepa va Qoratepa kabi yirik monastirlar mavjud edi [4,p.714-718]. Arablar kelgach, buddaviylik tazyiqqa uchragan bo'lsa-da, izlari yo'qolmadi. Masalan, Barmakiylar sulolasi Balxdagi Navbahor ibodatxonasi ruhoniylari avlodidan bo'lib, islomni qabul qilib Abbosiylar saroyida yuqori mansabga ko'tarilgan [1,p.395-398]. Ba'zi tadqiqotchilar sufiylikning shakllanishida buddaviy-falsafiy g'oyalar ta'sirini qayd etib, zuhd-u riyozat amallarini budda rohiblari an'anasiga qiyoslaydi [2,c.66-67]. Litvinskiy ham buddaviylik Sharqiy Eron va Movarounnahrda sufizm poydevoriga ta'sir qilganini ta'kidlaydi. X asrdagi ilk madrasa va xonaqohlar qiyofasida budda viharlari ta'siri seziladi [2,c.66-67]. Lingvistik dalillar orasida "but" so'zining "Budda"dan kelib chiqib, fors-tojik

adabiyotida majoziy ma'noda qo'llanishi bor[8,p.1-3]. Arxeologik topilmalarda ham buddaviy unsurlar aks etib, ilk islom tangalarida hind yozuvlari va tasvirlar uchraydi. Shnirelman Navbahorda turli dinlarning izlari topilganini qayd etadi. IX–XII asrlarda sufiylik buddaviy ruhoniylilik unsurlarini davom ettirib, Yassaviy tariqatidagi 40 kunlik chilla budda rohiblari an'anasi bilan qiyoslanadi. Yassaviy hikmatlarining xalq tilida yozishi buddaviy rohiblarning mahalliy tildagi faoliyatiga yaqin turadi.

Shamanik amaliyotlarning islomiy marosimlarga singishi. Turkiy xalqlar islomdan avval shamanizm va tengrichilikka amal qilgan. VIII–IX asrlarda ular islomni qabul qilgan bo'lsalar-da, "Tengri" so'zi Olloh ma'nosida qo'llangan[6,p.50-51]. Tengrichilikdagi yagona Xudoga e'tiqod, ajdod ruhlarini hurmatlash kabi qarashlar islom bilan uyg'un bo'lgani sababli konvertatsiya nisbatan oson kechdi[6,p.49-57]. Qurbonlik va sajda kabi amallar ham turkiy odatlarga mos kelgan[6,p.49-57]. Basilov shamanizm unsurlari islomlashuvdan keyin ham xalq orasida yashab qolganini ta'kidlaydi[3,p.5-6]. Masalan, avliyo qadamjoylarini ziyorat qilish shamanlarning muqaddas joylarga sig'inishiga o'xshash bo'lib, bu odat bid'at sifatida qoralansa-da, xalq orasida keng tarqaldi. Shamanlarning ruh chaqirish usullari Qur'on tilovatiga moslashdi[3,p.5-6]. Ayrim baxshilar o'zlarini "mulla" deb atab, shamanlik amallarini islomiy tusda davom ettirdilar. XX asr boshlarida qirg'iz ayol shamanlari duo va Qur'on oyatlari bilan marosim o'tkazgan[3,p.5-6]. Bu sinkretizm "islomlashtirilgan shamanizm" ko'rinishida davom etib, shifokorlik va fol ochish singari qadimiy amallar zikr va duo bilan boyitildi. Shu tarzda shaman marosimlari islomiy ruhda qayta talqin qilindi.

Sufiylik va shamanizm unsurlari. Ahmad Yassaviy (XII asr) turkiy xalqlar orasida islomni chuqur singdirgan shayx bo'lib, Jean-Marc Deom ma'lumotiga ko'ra, Qozog'iston va Markaziy Osiyodagi baxshi va shomonlar o'z silsilasini Yassaviyga bog'lashgan[5,p.85-86]. Bu hol shamanlik faoliyatining sufiylikda islomiy mazmun bilan davom etganini ko'rsatadi. Yassaviy tariqatidagi *sama'* – musiqa va raqs orqali trans holati – shamanlarning ritmik marosimlarini

eslatadi. Muridlar nog'ora jo'rligida zikr qilib, ruhiy ekstazga erishgan.

Ajdodlar ruhini yod etish odati ham islomiy davrda "bobo ota", "aziz avliyo"larga sig'inish shaklida davom etdi. Omonulla Bo'riyev qayd etishicha, Ramazon oyida marhumlarni yod etish marosimlari o'tkazilgan, Toshkent atrofida esa bolalar "Ramazon" qo'shig'ini kuylab uyma-uy yurishgan[10,b.10-12]. Bu odatlar ajdodlarga sig'inish marosimining islomiy ko'rinishga moslashgan shakllaridir. Islomiy marosimlarda ham shamanizm izlari saqlangan. Qurbonlik marosimlari turkiy va mo'g'ul xalqlaridagi ruhlarni xotirlash an'alariga o'xshaydi[6,p.49-57]. Navro'zda gulxan yoqib sakrash, kelinni olov atrofida aylantirish kabi urflar esa zardushtiy va shamanistik odatlarning davomidir [7,p.7-11]. XIX asrda Buxoro atrofida "Chilla chorshanba" marosimida olov orqali davolash odati yashab qolgan[7,p.7-11].

"Qirq chiltan" e'tiqodi ham shaman ruhlariga sig'inishning islomiy talqinidir. Xalq rivoyatlarida ularning piri sifatida Hazrat Ali eslatilib, shamanlarning "ruhlar podshosi" tasavvuri avliyoga bog'langan. Bu motivlar doston va adabiyotlarda ham aks etgan [4,p.714-718]. IX–XII asrlarda Movarounnahr diniy hayoti rasmiy islom va xalqona sinkretik an'alar uyg'unligida rivojlandi. Ulamolar eski odatlarni qoralagan bo'lsalar-da, xalq ular uchun islomiy talqin topdi yoki muqaddas shaxs nomi bilan bog'ladi[7,p.7-11]. Shu bois tadqiqotchilar bu hodisani "xalq islomiy sinkretizmi" deb ataydilar[4,p. 714-718].

MUNOZARA (DISCUSSION).

Yuqoridagi natijalar islomning Movarounnahrda tarqalishi sof diniy almashinuv emas, balki murakkab madaniy transformatsiya bo'lganini ko'rsatadi. Islom mahalliy e'tiqodlarni o'z ichiga olgan holda mustahkamlandi. Bunga bir necha omillar ta'sir ko'rsatdi.

Birinchidan, diniy moslashuvchanlik. Ilk davrda islom vakillari mahalliy urf-odatlarga mutaassiblik bilan yondashmagan. Somoniylar va Qoraxoniylar aholiga ma'lum erkinlik berib, eski an'analarni birdaniga man etmaganlar [4,p.714-718]. Ba'zi amaldorlar buddaviy oilalardan chiqqan [1,p.395-398]. Qoraxitoylar esa musulmon va buddaviy jamoalarga homiylik qilgan [8,p.1-3]. Natijada budda va shaman amaliyotlari "madaniy plyuralizm" sharoitida saqlanib qoldi.

Ikkinchidan, sotsial-psixologik moslashuv. Mahalliy xalq eski odatlarini tark eta olmay, ularni yangi diniy talqin ostida davom ettirdi. Masalan, ajdodlarni yodlash marhumlar uchun duoga, suv va daraxt kultlari avliyo mo'jizasiga aylantirildi. Xalq bir vaqtning o'zida namoz o'qib, qabr toshiga mato bog'lab niyat qildi. Turkiy xalqlar islomni o'z e'tiqodlariga yaqin tomonlari sabab qabul qildilar[6,p.49-57]. **Uchinchidan, sufiylik harakati.** Sufiy shayxlar xalq orasida islomni tarqatishda mahalliy an'analardan foydalangan[5,p.85-86]. Ahmad Yassaviy turkiy til va ohanglardan foydalanib, sobiq shamanlar faoliyatini qisman o'z zimmasiga oldi. Sufiylar hosil uchun duo, yovuz ko'zdan himoya kabi odatlarni islomiy tusda davom ettirib, xalq orasida ommalashdilar[3,p.5-6; 4, p.714-718]. **To'rtinchidan, davlat siyosati.** Ba'zi hukmdorlar qat'iy diniy choralarga qo'l urgan bo'lsalar-da, boshqalari asta-sekinlikni tanladilar. Somoniylar davrida zimmiylar uzoq vaqt yashab qoldi, Xorazmshohlar esa Navro'zni rasman nishonladilar[7,p.7-11;9, p.43-51]. Bu siyosat sinkretizmning yashashiga sharoit yaratdi. **Beshinchidan, vaqt omili.** Islomlashuv bir zumda emas, avlodlar davomida sodir bo'ldi. Birinchi avlod musulmonlari eski urf-odatlarni ko'proq saqlagan, keyingi avlodlarda esa ular islomiy tus olgan. Masalan, shamanning o'rnini "baxshi" egallab, musulmoncha ismlar bilan zikr va fol ochish amaliyotini davom ettirgan.

IX–XII asrlarda Movarounnahr diniy hayoti rasmiy islom va xalqona sinkretik an'analari uyg'unligida shakllandi[6,p.49-57]. Islomiy marosimlar mahalliy rang kasb etdi, hayit va diniy odatlar Yaqin Sharqdagidan farqli bo'ldi. Tadqiqotchilar Markaziy Osiyo islomiy madaniyatini tarixiy xilma-xilligi bilan ajralib turishini ta'kidlashadi[9,p.43-51]. Shu bois, mahalliy olimlar ham islomiy udumlarda "xalqchil islom" qatlamini alohida qayd etadilar.

XULOSA (CONCLUSION). IX–XII asrlar Movarounnahr tajribasi shuni ko'rsatadiki, akkulturationsiya va transformatsiya dinlar almashinuvida hal qiluvchi rol o'ynagan. Islom kirib kelishi buddaviy va shamanik amaliyotlarning yo'qolishi emas, balki yangi sharoitga moslashuvi bilan kechdi. Dalillar tasdiqlashicha, islomiy marosimlar qadimiy urf-odatlar bilan boyib, sinkretik diniy madaniyat

shakllandi. Maqolada keltirilgan misollar – buddaviylikning sufiylikka ta'siri, shamanik tabiblikning islomiy shifokorlikka aylanishi, Navro'z bayramining davom etishi, avliyolar ziyorati – barchasi islomlashuv ko'proq madaniy moslashuv asosida kechganini ko'rsatadi. Natijada, islom rasmiy din sifatida qaror topsa-da, mahalliy an'analarni o'ziga singdirib davom etdi [4,p.714-718] [3,p.5-6]. Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'rta asrlardagi sinkretik an'analari keyingi davrlarga ham ta'sir ko'rsatib, bugungi madaniyatda iz qoldirgan. Masalan, Navro'z bayramining nishonlanishi [7,p.7-11] va xalq tabibchiligidagi diniy duolar bilan qadimiy usullarning qo'llanishi [10,b.10-12] o'tmishdagi akkulturationsiyaning mahsulidir. Demak, bu jarayonni o'rganish nafaqat tarixni, balki bugungi madaniy-diniy jarayonlarni tushunishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Kamoliddin Sh. On the Religion of the Samanids' Ancestors. – Transoxiana Journal, 2006. – p. 395-398.
2. Litvinskiy B.A. Буддизм и суфизм в Средней Азии (Buddhism and Sufism in Central Asia). – T.: 1968. – c. 66-67.
3. Basilov V.N. Islamic Shamanism Among Central Asian Peoples. – Diogenes, Vol. 40, No. 158, 1992. – pp. 5-6.
4. Abdukadyr kyzy B. et al. Religious Development of Ancient Cities of Central Asia in the 9th–13th centuries. – Pharos Journal of Theology, Vol. 106 (3), 2025. – p. 714-718.
5. Deom J.M. Islamization and Early Sufism in Central Eurasia (8th–13th centuries AD). – Seminar paper, Almaty, 2017. – p. 85-86.
6. Ekinchi E.B. Turkic peoples' road to Islam. – Daily Sabah, 30 June 2017. – p. 49-57.
7. Kasimjonova N.F. Islamic Holidays in the Middle Ages. – American Journal of Science on Integration and Human Development, Vol. 1, Issue 3, 2023. – p. 7-11.
8. Dragnea M. Islamic Culture and Pre-Islamic Beliefs in Central Asia. – Lexington Books, 2024. – p. 1-3.
9. Tor D. G. The Islamization of Central Asia in the Sāmānid era. – Bulletin of SOAS, 72(2), 2009. – p. 43-51.
10. Mahmudov A. Sufiylik va xalq islomining shakllanishi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – b. 10-12.